

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.TAR.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MURODOV HALIM SALIMOVICH

**O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISHI TARIXI:
SAMARQAND, BUXORO VA XIVA SHAHARLARI MISOLIDA
(1991–2024-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of abstract of the doctor of science (DSc) dissertation

Murodov Halim Salimovich

O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi tarixi: Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida (1991–2024-yillar).....3

Муродов Халим Салимович

История развития туризма в Узбекистане: на примере городов Самарканд, Бухара и Хива (1991–2024 годы).....35

Murodov Halim Salimovich

The History of Tourism Development in Uzbekistan: The Case of Samarkand, Bukhara, and Khiva (1991–2024).....71

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....77

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.TAR.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MURODOV HALIM SALIMOVICH

**O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISHI TARIXI:
SAMARQAND, BUXORO VA XIVA SHAHARLARI MISOLIDA
(1991–2024-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Tar492 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.buxdu.uz/>) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rahimov Komiljon Rahmatovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'afforov Shokir Safarovich
tarix fanlari doktori, professor

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Djurayeva Sanobar Nurmatovna
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.08.01 raqamli ilmiy Kengashning 2026-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (365) 221-27-07. e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi (2026-yil “___” _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi)



A.T.Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

B.B.Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

R.N.Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, tarix fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida kechayotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy transformatsiyalar tarixiy taraqqiyot tajribasini qayta anglash hamda milliy merosni zamonaviy taraqqiyot jarayonlari bilan uyg'un holda tadqiq etishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Globallashuv sharoitida turizm sohasi faqat iqtisodiy daromad manbai sifatida emas, balki xalqlarning tarixiy xotirasini saqlash, milliy o'zlikni mustahkamlash, moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash hamda uni xalqaro miqyosda targ'ib etishning strategik vositasiga aylanmoqda. Shu bois, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda turizmni tarix, madaniyat, urbanizatsiya va sivilizatsion taraqqiyot bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy shaharlarning turistik salohiyatini ilmiy asosda tadqiq etish, turizm infratuzilmasining shakllanish bosqichlari, xizmat ko'rsatish tizimining evolyutsiyasi hamda tarixiy-madaniy merosning turizm rivojida o'rnini, turizmning rivojlanish omillari, davlat siyosati, xalqaro hamkorlik va madaniy diplomatiya bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida turizmning shakllanishi va rivojlanish dinamikasi, madaniy meros obyektlari, arxeologik hududlar hamda tarixiy maskanlarning turistik makon sifatida rivojlantirilishi masalalari keng tadqiq etilmoqda. Ushbu izlanishlar doirasida tarixiy shaharlarda turizmni tashkil etishning institutsional asoslari, davlat siyosati, joylashtirish vositalari, transport va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining rivojlanish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, viza va bojxona tizimini liberallashtirish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mehmonxona va turistik xizmatlar tarmog'ining kengayishi hamda tarixiy shaharlarda turizmning rivojlanish dinamikasi bilan bog'liq masalalar yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida turizmni iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirish, tarixiy shaharlarning xalqaro turizm markazlari sifatidagi mavqeini mustahkamlash, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda ulardan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Turist sayohat qilishi, ichki ishlar idoralarida sarson bo'lmasligi kerak. Agar biz turizm hisobiga ish o'rinlari ochamiz desak, turistga shart qo'yish emas, balki sharoit yaratishimiz zarur"¹. Bu esa turizm rivojlanishining tarixiy tajribasini qayta baholash, uning asosiy bosqichlari, rivojlanish qonuniyatlari va hududiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda turizmning 1991–2024-yillardagi rivojlanish jarayonini, xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida davlat siyosati, turizm infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sohasi, kadrlar tayyorlash tizimi va xalqaro hamkorlik omillari bilan uzviy bog'liq holda kompleks tadqiq etish tarix fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

¹ Mirziyoyev Sh. M. Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining ertangi kuni // Xalq so'zi. 2018-yil 23-fevral, №37-son.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda sohaga doir boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Hozirgi vaqtda jahon ilmiy hamjamiyatida turizm sohasi, xususan, tarixiy-madaniy merosga asoslangan turizmni o‘rganish alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, turli davlatlar ilmiy markazlari, universitetlari va xalqaro tashkilotlarining ixtisoslashgan bo‘limlarida kompleks tarzda tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekistonda turizm rivojlanishi, tarixiy shaharlarning (Samarqand, Buxoro va Xiva) sayyohlik borasidagi rivojlanishi va xalqaro turizm tizimiga integratsiyasi masalalari xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, avvalo, Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO)ning tadqiqot va statistika bo‘limlari doirasida olib borilib, unda turizm oqimlarini prognozlash, destinatsiyalar raqobatbardoshligini baholash, turizmni barqaror rivojlantirish indikatorlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilgan. Buyuk Britaniyaning London shahrida joylashgan WTTC – “Jahon sayohat va turizm kengashi” esa, o‘zining iqtisodiy tahlil departamentlari orqali turizmning yalpi ichki mahsulotdagi

² Dissertatsiyaning ushbu bandini yozishda quyidagi saytlardan foydalanildi: <https://www.unwto.org>, <https://wtcc.org>, <https://whc.unesco.org>, <https://rsaa.org.uk/>, <https://www.ox.ac.uk>, <https://www.soas.ac.uk>, <https://www.devstudies.cam.ac.uk>, <https://www.di-tourismusforschung.de/en/?utm>, <https://inn.to.fr/en/>, <https://business.gwu.edu>, <https://src-h.slav.hokudai.ac.jp/index-e.html>, <https://www.metu.edu.tr>, <https://tubitak.gov.tr/en>

ulushi, bandlikka ta'siri va investitsion jozibadorlik masalalarini chuqur o'rganadi.

Shuningdek, UNESCOning Jahon merosi markazi (World Heritage Centre) doirasida tarixiy shaharlarni saqlash va turizmga ulardan samarali foydalanish, madaniy merosni boshqarishning xalqaro standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarda madaniy meros va turizm o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilgan. Buyuk Britaniyadagi Osiyo ishlari bo'yicha Qirollik ilmiy jamiyati tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, asosan, Osiyo mamlakatlaridagi tarixiy, madaniy va ijtimoiy masalalar o'rganiladi. Mazkur tadqiqotlarda turizmni borasidagi sayohatchilar hisobotlari, ekspeditsiya kundaliklari, turizmning iqtisodiy, madaniy ta'siri, tarixiy yo'nalishlar (jumladan, Buyuk Ipak yo'li), madaniy meros va hududiy turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosa va hisobotlari muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yevropa va AQShning yetakchi universitetlarida ham mazkur turizm mavzusi keng tadqiq qilinmoqda. Jumladan, Oksford universiteti geografiya va atrof-muhit maktabi hamda turizm tadqiqotlari markazi faoliyati doirasida tarixiy shaharlarda turizmni rejalashtirish, madaniy landshaft konsepsiyasi va turizmning ijtimoiy ta'siri o'rganiladi. Kembrij universiteti Geografiya fakulteti hamda Rivojlanish tadqiqotlari markazi bo'limlarida esa, rivojlanayotgan davlatlarda, xususan, Sobiq Sovet respublikalari hududida turizm siyosati va hududiy rivojlanish masalalari tahlil qilinadi. Germaniyaning Nemis turizm tadqiqotlari instituti ijtimoiy, iqtisodiy (hudud va biznes), siyosiy va strategik boshqaruv, madaniy meros, turizm marketingi va innovatsiyalar masalalarini, Fransiyaning "INNTO France" nomidagi ilmiy markazlar birlashtirilgan tarmoq bo'lib, turizmni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy kontekstlarda tadqiq etadi. Shuningdek, meros, turizm oqimlari va raqamli transformatsiya bo'yicha ilmiy ishlar olib boradi. Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi – Rivojlanish tadqiqotlari markazi ilmiy bo'limlarida Markaziy Osiyo turizmi, madaniy meros va identitet masalalari, shuningdek, Buyuk Ipak yo'li turizmining zamonaviy talqini chuqur o'rganiladi. AQShdagi Jorj Vashington Universiteti Biznes Maktabi qoshidagi Xalqaro Turizm Tadqiqotlari Instituti doirasida turizm marketingi, destinatsiya brendi va davlat turizm siyosati mexanizmlariga alohida e'tibor qaratiladi. Yaponiyaning Xokkaydo universiteti qoshidagi Slavyan-Yevroosiyo tadqiqotlar markazi (SRC) Yevroosiyo mintaqalarini kompleks o'rganishga ixtisoslashgan ilmiy markaz bo'lib hisoblanadi. Turkiyadagi O'rta Sharq texnika universiteti (METU)ning Arxitektura fakulteti, Shahar va mintaqaviy rejalashtirish kafedrasida bo'limlarida tarixiy shaharlar rivoji, shahar turizmi va madaniy merosni rejalashtirish masalalari ilmiy asosda tadqiq etilib, islomiy me'moriy meros asosida turizmni rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqilgan. TÜBİTAK – Turkiya ilmiy va texnologik tadqiqotlar instituti bo'lib, barqaror turizm, ekoturizm, turizm infratuzilmasi va xizmat sifati, raqamli turizm hamda smart texnologiyalar yo'nalishlarida loyihalarni moliyalashtiradi.

Xorijiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, turizmni rivojlantirishda quyidagi ilmiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi: tarixiy-madaniy meros obyektlarini kompleks boshqarish modeli ishlab chiqilgan (UNESCO); turizmning

iqtisodiy samaradorligini baholashning zamonaviy usullari (World Travel & Tourism Council); destinatsiyalarni brendlash va xalqaro bozorda ilgari surish mexanizmlari asoslangan (George Washington University); tarixiy shaharlar rivojida turizm va urbanizatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlangan (Oxford University, University of Cambridge); madaniy meros va identitet masalalari chuqur tahlil qilingan (School of Oriental and African Studies). Zamonaviy xorijiy ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlari qatoriga turizmni barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, tarixiy shaharlarning turistik salohiyatini oshirish, raqamli texnologiyalar asosida turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish hamda pandemiyadan keyingi davrda turizmni tiklash mexanizmlarini ishlab chiqish kiradi. Shu bilan birga, mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonda turizm rivojlanishini, ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida qiyosiy-tarixiy tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar xorijiy ilmiy adabiyotlarda tobora kengayib bormoqda. Mazkur ilmiy markazlar va universitetlar faoliyati dissertatsiya mavzusini o'rganishda mustahkam nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda O'zbekistonda turizmning 1991–2024-yillardagi rivojlanish jarayonlarini xalqaro ilmiy yondashuvlar asosida chuqur tahlil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari turizm salohiyati hamda tarixiy-madaniy merosini saqlashga, turizm resursi sifatida rivojlantirishga bo'lgan ta'sirini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda bo'lgan milliy va xorijiy ilmiy an'analar asosida turizmni rivojlantirish tajribalarini qiyosiy tahlil qilish hamda Samarqand, Buxoro va Xiva misolida tarixiy turizmning evolyutsiyasini baholashga qaratilgan ilmiy ishlar muhim o'rin egallaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda turizmning rivojlanish tarixi, ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida o'rganilishi hozirgi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu masala mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy merosni asrash va xalqaro aloqalarni kengaytirish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda turizm sohasida olib borilgan davlat siyosati, infratuzilma va xizmat ko'rsatish tizimidagi o'zgarishlar ilmiy tadqiqotlarda turlicha yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Xususan, dastlabki tadqiqotlarda turizmning iqtisodiy jihatlariga urg'u berilgan bo'lsa, keyingi ishlarda tarixiy, madaniy va institutsional omillar kengroq yoritila boshladi. Shuningdek, 2017-yildan keyingi davrda turizmni rivojlantirishga qaratilgan yangi islohotlar, viza siyosatdagi o'zgarishlar va xalqaro hamkorlikning kengayishi mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada faollashtirdi. Shu bilan birga, turizm tarixini kompleks tarzda, hududlar kesimida va uzoq davrni qamrab olgan holda tadqiq etish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur yo'nalishda mavjud ilmiy adabiyotlarda ayrim hududlar kesimida chuqur tahlillar yetishmaydi va umumlashtiruvchi yondashuvlar kam uchraydi.

Dissertatsiyaning birinchi bobida muammoning o'rganilganlik darajasiga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq XSh-1136-raqamli "O'zbekistonda turizm rivojlanishining tarixi asoslari va zamonaviy xususiyatlari" nomli loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1991–2024-yillar oralig'ida Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida turizmning rivojlanish tarixini, shuningdek, davlat siyosati, infratuzilma, xizmat ko'rsatish sohasi va xalqaro hamkorlik yo'nalishlarini ilmiy asosda kompleks tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda turizm tarixini o'rganishning nazariy asoslarini tahlil qilish, ilmiy yondashuvlar va konseptual qarashlarning shakllanishini aniqlash;

mustaqillikdan keyingi davrda turizm tarixiga oid tadqiqotlarning rivojlanish bosqichlarini va ulardagi metodologik yondashuvlarni o'rganish;

1991–2016-yillarda Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va uning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish;

turizm infratuzilmasi, xususan, joylashtirish vositalari va xizmat ko'rsatish sohasining shakllanishi hamda mavjud muammolarni aniqlash;

2017–2024-yillarda amalga oshirilgan yangi islohotlar, viza va bojxona siyosatidagi o'zgarishlarning turizm taraqqiyotiga ta'sirini baholash;

mehmonxonalar, turistik firmalar faoliyati va xizmat ko'rsatish sifatidagi o'zgarishlarni tizimli tahlil qilish;

turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammolari va ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq etish;

Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida turizm rivojida xalqaro hamkorlikning o'rni va ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida 1991–2024-yillarda O'zbekistonda, xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida turizm sohasining rivojlanish jarayoni, davlat siyosati, turizm infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish tizimi, shuningdek, ushbu jarayonlar bilan bog'liq tarixiy o'zgarishlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida 1991–2024-yillar davomida O'zbekistonda turizmning rivojlanish tarixi, uning shakllanish jarayonlari, davlat siyosati asosida boshqarilishi, infratuzilma va xizmat ko'rsatish tizimidagi o'zgarishlar hamda sohaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini tarixiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Qo'yilgan vazifalarni bajarishga erishish uchun quyidagilardan foydalanildi: metodologik tamoyillar (tarixiylik, tizimlilik), tarixiy usullar, narrativ, tarixiy-genetik, qiyosiy, tarixiy-tipologik, tarixiy tizimli, tarixiy diaxron va sinxron, mantiqiy tahlil, muammoviy xronologik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

O'zbekistonda turizm rivojlanishi tarixi ilk bor Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida hududiy-lokal, iqtisodiy tarix va ijtimoiy-tarixiy yondashuvlar asosida kompleks tarzda tadqiq etilib, mustaqillikdan keyingi davr "turizmning

qayta shakllanish bosqichi” (1991–2016) hamda “jadal modernizatsiya va xalqaro integratsiya bosqichi” (2017–2024) kabi ikki tarixiy davrga ajratildi hamda ushbu bosqichlarning davlat siyosati, infratuzilma, xizmat ko‘rsatish sohasi va xalqaro hamkorlik bilan o‘zaro bog‘liqligi dalillanirildi;

mustaqillikning dastlabki yillarida amal qilgan qat’iy viza, bojxona va chegara siyosatining O‘zbekiston turizmi rivojiga salbiy ta’siri tarixiy-qiyosiy metod asosida ilk bor tizimli ravishda ochib berilib, ushbu siyosatning mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini pasaytirgani, mintaqaviy turizm integratsiyasini sekinlashtirgani hamda xorijiy turistlar oqimining boshqa davlatlarga yo‘nalishiga sabab bo‘lgani ilmiy jihatdan asoslandi, shuningdek, 2017-yildan keyingi viza liberallasuvi, elektron vizalar va raqamli xizmatlarning joriy etilishi turizm taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergani isbotlandi;

Samarqand shahri misolida UNWTO, UNESCO, ICESCO, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan olib borilgan hamkorlik natijasida turizm infratuzilmasining xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilinishi, xorijiy mehmonxona brendlarining joriy etilishi, tarixiy-madaniy merosning global miqyosda targ‘ib qilinishi hamda shaharning Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishidagi yirik turistik markazga aylanish mexanizmlari ilk bor asoslantirildi;

Buxoro va Xiva shaharlari misolida tarixiy-madaniy meros obyektlari, diniy-me’moriy yodgorliklar hamda xalqaro infoturlar, medialoyihalar va targ‘ibot dasturlarining turizm rivojiga ta’siri statistik va qiyosiy ma’lumotlar asosida tadqiq etilib, ushbu shaharlarning xalqaro turizm brendi sifatida shakllanishi, xorijiy turistlar geografiyasining kengayishi va turizm salohiyatining oshishida xalqaro marketing hamda madaniy diplomatiyaning muhim omil ekani isbotlandi;

O‘zbekistonda turizm rivojiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar kompleks tarzda tahlil qilinib, turizm infratuzilmasining hududlar bo‘yicha nomutanosib rivojlangani, malakali kadrlar tanqisligi, transport va mehmonxona xizmatlari sifatidagi kamchiliklar hamda xalqaro reklama sustligi soha taraqqiyotini cheklab kelgani ilmiy jihatdan asoslandi, shu bilan birga raqamlashtirish, onlayn platformalar va innovatsion boshqaruv tizimlarining joriy etilishi milliy turizmning zamonaviy rivojlanish bosqichiga o‘tishini ta’minlagan muhim omil sifatida baholanib, xalqaro hamkorlikning turizm samaradorligiga bevosita ta’siri ilk bor aniq statistik va qiyosiy tahlillar asosida isbotlanib, xorijiy turistlar geografiyasining kengayishi va oqimining keskin o‘sishi (2017–2019-yillarda Germaniya, Yaponiya va Rossiya bozorlarida 300–500%gacha o‘shish) xalqaro targ‘ibot, infoturlar, medialoyihalar va yirik tadbirlarning ta’siri natijasi ekanligi asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda turizmning rivojlanish tarixini Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida (1991–2024-yy.) qiyosiy o‘rganish uchun ishlab chiqilgan hududiy-lokal, iqtisodiy tarix va ijtimoiy tarix yondashuvlar asosida o‘rganish natijasida turizm sohasining shakllanishi va jadal rivojlanish bosqichlariga xos

xususiyatlar tizimlashtirildi hamda davlat siyosati, infratuzilma, xizmat ko'rsatish sohasi va kadrlar tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarni tahlil etishda qo'llash mumkin bo'lgan metodologik yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot doirasida turizmni rivojlantirishga oid ilgari kam o'rganilgan arxiv va normativ-huquqiy hujjatlar, hududiy dasturlar va statistik ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Bu esa, turizm tarixini o'rganishda fanlararo yondashuvni kengaytirish, hududlar kesimida qiyosiy-tarixiy tahlilni chuqurlashtirish hamda davlat siyosatining amaliy natijalarini baholash imkonini berdi.

O'zbekistonda turizmning rivojlanish tarixini Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida (1991–2024-yy.) o'rganish natijalari turizm sohasining tarixiy shakllanishi, davlat siyosati asosida rivojlanish bosqichlari, infratuzilma va xizmat ko'rsatish tizimidagi o'zgarishlarni yoritishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy izlanishlar olib borishda, turizm tarixining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganishda, milliy turizm salohiyatining tarixiy ildizlarini anglashda hamda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarida foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari Samarqand, Buxoro va Urganch davlat universitetlari va Buxoro davlat pedagogika institutining tarix va turizmga ixtisoslashgan yo'nalishlarida, shuningdek, Samarqand, Buxoro va Xiva turizm va madaniy meros texnikumlarida maxsus kurslar va ma'ruzalar tashkil etishda, turizm tarixi bo'yicha darslik hamda o'quv qo'llanmalarini mazmunan boyitishda tayanch manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tarix fanida e'tirof etilgan usul va nazariy yondashuvlar qo'llanilgani, keng ko'lamda tarixiy adabiyotlar hamda hujjatli manbalardan foydalanilgani bilan tasdiqlangan.

Manbalar O'zbekistondagi arxiv va kutubxona fondlaridan (O'zMA, SVDA, BVDA, XVDA, SVHA, XVHA, XShHA, "O'zbekturizm" MK (1992–2016-yillar), Turizm qo'mitasi va uning Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyati turizm boshqarmalari joriy arxivi ma'lumotlari va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Abu Ali ibn Sino nomidagi axborot-kutubxona markazi, A.S.Pushkin nomidagi Samarqand axborot-resurs markazi), Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) statistik tizimi hamda xalqaro ilmiy (DergiPark Akademik – Turkiya ilmiy jurnallar platformasi), Turkiya Oliy ta'lim kengashi (Yükseköğretim Kurulu – YÖK) rasmiy saytlaridan olingan.

Shuningdek, tadqiqotda davriy matbuot materiallari, suhbatlar, ilmiy anjumanlarda sinovdan o'tkazilgan va tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan natijalar ham qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* shundaki, ular 1991–2024-yillarda O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanish jarayonlarini, xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida tarixiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqot ishi doirasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining evolyutsiyasi, infratuzilma va xizmat ko'rsatish tizimidagi o'zgarishlar hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari ilmiy asosda yoritildi. Shuningdek, turizm tarixini o'rganishda nazariy yondashuvlar va

metodologik tamoyillar tizimlashtirilib, mazkur sohaning tarixshunoslik bazasi boyitildi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, ular O‘zbekiston Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida turizm tarixi, o‘lkashunoslik, iqtisodiy tarix va xizmat ko‘rsatish sohalariga oid fanlarni takomillashtirishda foydalanilishi mumkin. Olingan natijalar turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot materiallari turizmni targ‘ib qilish, madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish va hududiy turizm siyosatini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. “O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi tarixi: Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida (1991–2024-yy.)” mavzusini tahlil qilish natijasida quyidagilar amaliyotga joriy qilindi:

Buxoro va Xiva shaharlari misolida tarixiy-madaniy meros obyektlari, diniy-me’moriy yodgorliklar hamda xalqaro infoturlar, medialoyihalar va targ‘ibot dasturlarining turizm rivojiga ta’siri statistik va qiyosiy ma’lumotlar asosida tadqiq etilib, ushbu shaharlarning xalqaro turizm brendi sifatida shakllanishi, xorijiy turistlar geografiyasining kengayishi va turizm salohiyatining oshishida xalqaro marketing hamda madaniy diplomatiyaning muhim omil ekani haqidagi ma’lumotlar Buxoro viloyati turizm boshqarmasi faoliyatida keng qo‘llanildi (*O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi Buxoro viloyati turizm boshqarmasining 2026-yil 28-martdagi 02-07/570-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada, Buxoro shahridagi turistik korxonalarda sayyohlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati oshdi, sayyohlar oqimi va ularning turlar – sayohatlardan xursand bo‘ldi hamda Buxoro shahrining xalqaro turistik jozibadorligi sezilarli darajada kuchaydi;

mustaqillikning dastlabki yillarida amal qilgan qat’iy viza, bojxona va chegara siyosatining O‘zbekiston turizmi rivojiga salbiy ta’siri tarixiy-qiyosiy metod asosida ilk bor tizimli ravishda ochib berilib, ushbu siyosatning mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini pasaytirgani, mintaqaviy turizm integratsiyasini sekinlashtirgani hamda xorijiy turistlar oqimining boshqa davlatlarga yo‘nalishiga sabab bo‘lgani ilmiy jihatdan asoslandi, shuningdek, 2017-yildan keyingi viza liberallasuvi, elektron vizalar va raqamli xizmatlarning joriy etilishi turizm taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergani borasidagi ma’lumotlardan Buxoro viloyati turizm boshqarmasi faoliyatida keng qo‘llanildi (*O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi Buxoro viloyati turizm boshqarmasining 2026-yil 28-martdagi 02-07/570-sonli ma’lumotnomasi*). Natijalarning amaliyotga joriylantirilishi gid-hamrohlar va turizm xodimlarining malakasini oshirish, ekskursiya xizmatlarini interaktiv shaklga o‘tkazish, muzey va tarixiy obyektlarda qo‘shimcha qulayliklar yaratish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion loyihalarni (jumladan, turistik xizmatlarni raqamlashtirish va yangi turistik mahsulotlar yaratish) joriy etish orqali turizm infratuzilmasi takomillashtirishga xizmat qildi;

Samarqand shahri misolida UNWTO, UNESCO, ICESCO, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan olib borilgan hamkorlik natijasida turizm infratuzilmasining xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilinishi, xorijiy mehmonxona brendlarining joriy etilishi, tarixiy-madaniy merosning global miqyosda targ'ib qilinishi hamda shaharning Buyuk Ipak yo'li yo'nalishidagi yirik turistik markazga aylanish mexanizmlari to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi tarkibidagi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Boqiy obidalar" va "Ekspeditsiya" ko'rsatuvlarini tayyorlashda keng foydalanildi (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2026-yil 31-martdagi 01-33/209-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, sohaga oid yangi ilmiy ma'lumot va tavsiyalar asosida teleko'rsatuvlarning mazmun-mohiyati boyitildi, turizm va madaniy merosga oid materiallarning ilmiy asoslanganligi ta'minlandi hamda keng jamoatchilikka tarixiy obidalar va turizm salohiyati haqida ishonchli va tizimli ma'lumotlar yetkazildi;

O'zbekistonda turizm rivojiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar kompleks tarzda tahlil qilinib, turizm infratuzilmasining hududlar bo'yicha nomutanosib rivojlangani, malakali kadrlar tanqisligi, transport va mehmonxona xizmatlari sifatidagi kamchiliklar hamda xalqaro reklama sustligi soha taraqqiyotini cheklab kelgani ilmiy jihatdan asoslandi, shu bilan birga raqamlashtirish, onlayn platformalar va innovatsion boshqaruv tizimlarining joriy etilishi milliy turizmning zamonaviy rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlagan muhim omil sifatida baholanib, xalqaro hamkorlikning turizm samaradorligiga bevosita ta'siri ilk bor aniq statistik va qiyosiy tahlillar asosida isbotlanib, xorijiy turistlar geografiyasining kengayishi va oqimining keskin o'sishi (2017–2019-yillarda Germaniya, Yaponiya va Rossiya bozorlarida 300–500%gacha o'sish) xalqaro targ'ibot, infoturlar, medialoyihalar va yirik tadbirlarning ta'siri natijasi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlardan ALM-202403110240 – "Buxoro viloyatining rekreatsion-turistik xaritasini va yangi turistik marshrutlarni yaratish" nomli amaliy loyihani bajarishda keng foydalanildi (*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2026-yil 11-apreldagi 01-2610-sonli ma'lumotnomasi*). Natijalarning joriylanishi, loyihani mazmunli bajarishga hamda rekreatsion obyektlardan samarali foydalanish, turistik yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish hamda hududning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qildi;

O'zbekistonda turizm rivojlanishi tarixi ilk bor Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida hududiy-lokal, iqtisodiy tarix va ijtimoiy-tarixiy yondashuvlar asosida kompleks tarzda tadqiq etilib, mustaqillikdan keyingi davr "turizmning qayta shakllanish bosqichi" (1991–2016) hamda "jadal modernizatsiya va xalqaro integratsiya bosqichi" (2017–2024) kabi ikki tarixiy davrga ajratildi hamda ushbu bosqichlarning davlat siyosati, infratuzilma, xizmat ko'rsatish sohasi va xalqaro hamkorlik bilan o'zaro bog'liqligi haqidagi ma'lumotlardan Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyatida keng qo'llanildi (*O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2026-yil 22-apreldagi 04-05/1884-sonli ma'lumotnomasi*).

Natijada, muzey faoliyatida mehmonlarga xizmat ko'rsatish tizimi rivojlanishiga, hududiy turizm infratuzilmasini baholash, tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish hamda ularni targ'ib etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini yuzaga chiqardi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy konferensiyalarda, shu jumladan, 4 ta xalqaro konferensiya va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 11 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot qismining umumiy hajmi 260 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilib, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchlilik asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda turizm tarixi o'rganilishining nazariy asoslari va tadqiq etilishi”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekistonda turizm tarixining nazariy-konseptual asoslari, O'zbekistonda turizm tarixining manbashunosligi, tarixshunosligi va tadqiqotdagi yondashuvlar to'g'risida ma'lumotlar berilib, ilmiy tahlil qilingan. Birinchi bobning birinchi fasli **“O'zbekistonda turizm tarixi o'rganilishining nazariy asoslari”** deb nomlanadi. Unda o'lkamiz hududida aholining sayohat va safarlarga chiqish jarayonlari, ushbu harakatlarga dastlabki diniy qarashlarning ta'siri, markazlashgan davlatlarning shakllanishi natijasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda Buyuk Ipak yo'lining vujudga kelishi, shuningdek, o'rta asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar turizm rivojining yangi bosqichini boshlab bergan muhim tarixiy omillar sifatida bayon etilgan.

Mustaqil davlat sifatida xalqaro standartlarga javob beradigan turizm industriyasi va zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, shuningdek, sohaga oid xalqaro me'yorlarga mos huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni yaratish maqsadida hukumat tomonidan turizm sohasining ehtiyoj, talab va istiqbollari chuqur o'rganildi. Ana shu jarayonlar natijasida 1992-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasidagi bosh davlat boshqaruv organi

hisoblangan “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi³. Mazkur Farmon asosida turizmni boshqarishning markazlashgan tizimi shakllantirilib, hududiy turizm bo‘limlari faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi. PF-447-sonli Farmonni amaliyotga tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan sohani tashkiliy va tarkibiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Sohaga oid dastlabki institutsional o‘zgarishlar Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 7-sentabrdagi 415-31-sonli va 1996-yil 21-noyabr 408-sonli qarori bilan mustahkamlandi⁴. Mazkur qarorga muvofiq, xorijiy fuqarolarning turist maqomida O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishining vaqtinchalik qoidalarini tasdiqlanib, ular asosida mamlakatga kirish-chiqish, vaqtincha yashash va ro‘yxatdan o‘tish tartiblari belgilab berildi.

Keyinchalik qabul qilingan 408-sonli qarorga ko‘ra yangi tartiblar belgilandi⁵. Mazkur qoidalar O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar, ayniqsa, individual hamda mustaqil sayohat qiluvchi turistlar uchun “qattiq rejimli” mamlakat sifatidagi qiyofaning shakllanishiga olib keldi. Bu kabi murakkab qoidalarining turistlar uchun emas, balki yuqori darajadagi xavfsizlik uchun yo‘naltirilganligi O‘zbekistonning turistik imijiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, natijada ular muqobil yo‘nalishlarni, ya‘ni liberal qoidalar qo‘llayotgan Gruziya, Qozog‘iston yoki Qirg‘izistonni tanlashiga majbur qilgan. Bu esa, O‘zbekistonning mehmondo‘st, qulay kabi tashqi reklamasiga mos kelmaydigan ichki qoidalarining milliy brendga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘lishiga, shuningdek, marketing faoliyatida nomutanosiblikni keltirib chiqargan. O‘zbekistonda turizmning rivojlanishidagi mavjud muammolarga yechim topish, milliy turizmning xalqaro imijini yuksaltirish va keyingi davr taraqqiyoti uchun o‘zgarishlarga yo‘l ochish maqsadida sohaning bosh huquqiy asosi bo‘lgan “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni 1999-yil 20-avgustda qabul qilindi⁶. “O‘zbekturizm” boshchiligidagi milliy turizm industriyasini yaratish, uning tashkiliy hamda me‘yoriy huquqiy jihatdan shakllantirishda anchagina ijobiy o‘zgarishlarga erishilgan bo‘lsa-da, ammo birinchi bosqich (1991–2016) davrida milliy sayyohlik tizimi rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar hali ham saqlanib qolayotgan edi. Bular jumlasiga: a) sohada malakali kadrlarning tanqisligi⁷; b) turistik infratuzilmaning bir tekisda rivojlanmaganligi (Surxondaryo, Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysida turistik infratuzilmalar rivojlanmagan)⁸; d) xorijda milliy turistik mahsulotning faol reklamasini yo‘lga qo‘yilmaganligi⁹; e) viza tartibidagi kamchilik va noqulayliklar,

³ O‘zbekiston milliy arxivi (keyingi o‘rinlarda O‘zMA). M-141-fond, 1-ro‘yxat, 38-ish, 2-varaq.

⁴ Murodov H.S. Mustaqillikning dastlabki yillarida turizmni rivojlantirish huquqiy asoslarining yaratilishi va tashkiliy jihatlari. // Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2022. – №4-2 (88). – B. 6–10.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 408-son 21.11.1996. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-512233?ONDATE=21.11.1996%2000#-5054146>

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni // Xalq so‘zi. 1999-yil 21-avgust. 165-son.

⁷ O‘zMA. M-141-fond, 1-ro‘yxat, 40-ish, 40-, 42-varaqlar.

⁸ Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2018. – B. 330.

⁹ Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida): iqt. fanl. dokt. ... diss. – Toshkent, 2019. – B. 59.

bojxona va chegaradagi turistlarni bezdiradigan rasmiyatchiliklarning ko‘pligi¹⁰; f) turistik mavsum davrida asosiy turistik markazlarda mehmonxonalarning kamligi; g) O‘zbekistonga aviachiptalarning narxlari yuqoriligi va mehmonxona narxlarining xizmat ko‘rsatish darajasiga mos kelmasligi¹¹ kabilar kirar edi.

O‘zbekiston turizmi rivojining yangi bosqichi qonunchilik va boshqaruv tizimidagi islohotlar bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirildi. Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish hamda turistlar va turistik faoliyat subyektlarining huquqlarini himoya qilish maqsadida 2019-yil 18-iyulda “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-sonli qonun qabul qilindi¹². Turizm boshqaruvi tizimi ham bosqichma-bosqich takomillashib bordi. Xususan, 1992–2016-yillarda sohani “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi¹³, 2017–2021-yillarda “Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi”, 2021–2022-yillarda “Turizm va sport vazirligi”, 2022–2023-yillarda “Turizm va madaniy meros vazirligi”, 2023-yildan hozirgi kungacha esa Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Turizm qo‘mitasi” boshqarib kelmoqda. Mazkur boshqaruv tizimining izchil takomillashtirilishi davlatning turizm sohasiga nisbatan strategik va evolyutsion yondashuvini aks ettirib, tizim samaradorligini oshirish hamda turizmning iqtisodiyotdagi ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qildi.

Tadqiqotda O‘zbekistonda turizm rivojlanishi tarixiylik va tizimlilik tamoyillari asosida ikki bosqichga — birinchi bosqich (1991–2016-yillar) hamda ikkinchi bosqich (2017–2024-yillar)ga ajratilib, ilmiy mezonlar asosida tasniflandi. Birinchi bosqichda davlat nazoratining kuchliligi, viza va bojxona tartiblarining qattiqqligi, bank-moliya tizimidagi muammolar, transport va aloqa xizmatlari sifatining pastligi hamda raqamlashtirishning deyarli mavjud emasligi turizm sohasining jadal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, 2000–2016-yillarda qo‘shni davlatlar, xususan, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan chegara masalalaridagi kelishmovchiliklar, tranzit va viza cheklovlari ham turizm rivojini sezilarli darajada cheklab qo‘ydi. Natijada mamlakat mavjud turizm salohiyatidan to‘liq foydalana olmadi. Buni 2016-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar sonining 2 million 27 ming kishini, chiquvchi turistlar sonining 3 million 847 ming 835 kishini¹⁴, ichki turistlar sonining esa 8 million 855 ming 200 kishini¹⁵ tashkil etgani ham tasdiqlaydi. Mazkur ko‘rsatkichlar turizm resurslari jihatidan O‘zbekistondan ustun bo‘lmagan Qozog‘iston bilan qiyoslanganda, qo‘shni davlatning ayrim ustunliklari yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli tadqiqotda 1991–2016-yillar davri “O‘zbekistonda turizmning qayta shakllanishi va rivojlanishi: ijobiy o‘zgarishlar hamda muammolar davri” sifatida baholandi.

¹⁰ Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 117.

¹¹ BVDA. M-1503-fond, 1-ro‘yxat, 44-ish, 152–154-varaqlar.

¹² O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni // Xalq so‘zi. 2019-yil 19-iyul. 147-son.

¹³ “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida. // Xalq so‘zi, 1992-yil 28-iyul, 144-son.

¹⁴ Ўзбекистонда туризм. Статистик тўплам. – Тошкент, 2020. – Б. 37-38.

¹⁵ Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining “Yig‘ma axborot-tahlil, statistika, strategik rejalashtirish va metodologiya boshqarmasi” joriy arxivi. 2016–2023-yillarda turizm sohasida amalga oshirilgan Respublikaning asosiy ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot. 29.09.2025

Ikkinchi bosqichda esa turizmni tiklash va rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar shakllandi. Xususan, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” hamda “Manguberdi vataniga sayohat qil” dasturlari ichki turizmni rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutdi. Raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi natijasida elektron vizalar, onlayn xizmatlar hamda booking.com, Airbnb, expedia.com, hotels.com va agoda.com kabi xalqaro platformalardan foydalanish kengaydi. Shunga qaramay, 2024-yilda O‘zbekistonning 38 million aholisi hisobiga har bir fuqaroga o‘rtacha 0,27 nafar turist to‘g‘ri kelgani mamlakat turizm salohiyatidan hali to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi¹⁶.

Tadqiqot davomida mavzuni chuqur tahlil qilish va ilmiy xulosalar ishlab chiqishda iqtisodiy-tarixiy, ijtimoiy-tarixiy hamda hududiy-lokal yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, narrativ, tarixiy-genetik, qiyosiy, tarixiy-tipologik, tarixiy-tizimli, diaxron va sinxron, mantiqiy tahlil hamda problematik-xronologik usullar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli ***“O‘zbekistonda turizm tarixining manbashunosligi, tarixshunosligi va tadqiqotdagi yondashuvlar”*** deb nomlanib, ushbu qismda mavzusining manbashunoslik va tarixshunoslik asoslari hamda mazkur ilmiy tadqiqot uchun ishlab chiqilgan asosiy metodologik yondashuvlar tahlil qilingan. Ushbu qismda mavzuning ilmiy o‘rganilganlik darajasi, mavjud tadqiqotlar, manbalar bazasi hamda tadqiqot metodlari yoritib berilgan. Tadqiqotning manbaviy asosini quyidagi beshta guruhga ajratish mumkin:

1. Arxiv hujjatlari.
2. Statistik materiallar.
3. Davriy matbuot materiallari.
4. Og‘zaki tarix manbalari.
5. Internet va elektron resurslar.

Tadqiqot masalasini yoritishda O‘zbekiston Milliy arxivi hamda uning Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyati bo‘limlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kanselyariyasi arxivining Xorazm viloyati bo‘limi (Xorazm viloyati hokimligi arxivi), Samarqand viloyati hokimligi arxivi, Xiva shahar davlat arxivi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi joriy arxivi, shuningdek, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyati turizm boshqarmalari joriy arxivi hujjatlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi.

Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivining M-37 va M-141 fondlarida saqlanayotgan “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi hamda uning hududiy bo‘limlari faoliyatiga oid hujjatlar tadqiqot uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qildi. Ushbu fondlarda “Meros” dasturi, 2000-yilgacha O‘zbekistonda

¹⁶ Qiyoslaydigan bo‘lsak, Ispaniyada turistlar soni aholi sonidan ham ko‘p bo‘lib, har bir aholiga o‘rtacha 1,7 ta; Fransiya bir aholiga 1,3 ta; Gruziya ham turizm rivojlangan davlatlardan biri bo‘lib, bu mamlakatda har bir aholiga o‘rtacha 1,5 ta turist to‘g‘ri keladi. Ushbu davlatlarda turizm sohasi taraqqiy etgani va har yili ko‘p sonli xorijiy sayyohlarni qabul qilishi namoyon bo‘lmoqda. Demak, bu statistika O‘zbekiston o‘zining katta salohiyatidan hali to‘la foydalana olmaganini ko‘rsatib, xalqaro marketing sustligi, xalqaro aviareyslarni ko‘paytirishning zarurligini, turizm infratuzilmasi kengaytirishni va kadrlar malakasi borasidagi kamchiliklarni bartaraf etishni taqozo etmoqda.

turizmni rivojlantirish konsepsiyasi va dasturi, Samarqand, Buxoro hamda Xorazm viloyatlaridagi turizm bo'limlari faoliyatiga doir hisobotlar, xalqaro konferensiya va yarmarkalarda ishtirok etish bilan bog'liq rasmiy ma'lumotlar hamda statistik materiallar jamlangan. Mazkur hujjatlar bob va paragraflarda ko'tarilgan masalalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni quyidagi uchta guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Mustaqillik yillarida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar.
2. MDHda nashr qilingan adabiyotlar.
3. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruhga oid tadqiqotlar mazmuni va qamrovi jihatidan keng bo'lsa-da, yuqorida ta'kidlanganidek, ularni davriy xususiyatlari hamda turizm rivojlanishining o'ziga xos bosqichlarini inobatga olgan holda ikki davrga — 1991–2016-yillar va 2017–2024-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar tarzida tasniflab o'rganildi.

Tadqiqotimizning birinchi bosqichi hisoblangan 1991–2016-yillarda ijtimoiy fanlar, ayniqsa, O'zbekiston tarixi yo'nalishida turizmga oid tadqiqotlar soni nisbatan cheklangan edi. Bunga turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yetarli darajada namoyon bo'lmagani, uning ko'proq iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasi sifatida talqin etilgani, manbalar va statistik ma'lumotlar bazasining kamligi, ayrim masalalarning siyosiy jihatdan nozik hisoblangani hamda xususiy sektorning sust rivojlangani sabab bo'ldi.

Shunga qaramasdan, ushbu davrda ayrim muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, tarix fanlari doktori O.P. Kobzeva o'z tadqiqotida Buyuk Ipak yo'lini Yevroosiyo hududidagi iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga katta ta'sir ko'rsatgan transkontinental yo'l sifatida baholab¹⁷, uni zamonaviy sharoitda qayta tiklashning xalqaro turizm rivojidagi istiqbollariga alohida e'tibor qaratgan.

Tarixchi O.Z. Jalilovning tadqiqoti¹⁸ O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizm rivojlanishini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganishga qaratilgan dastlabki ilmiy ishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda 2008-2009-yillarda Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarning boy tarixiy, madaniy va tabiiy salohiyatidan turizm maqsadlarida atigi 20 foiz darajasida foydalanilayotgani qayd etilib, sohani rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish, transport, kommunikatsiya va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur omillar aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Turizm sohasiga oid iqtisodiy yo'nalishdagi tadqiqotlar salmoqli o'rin egalladi. Jumladan, B.M. Xusanboyev o'z ilmiy ishida turizm boshqaruvi muammolari va uning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilgan¹⁹ bo'lsa, A.N. Norchayev

¹⁷ Кобзева О.П. Великий Шелковый путь анализ проблем изучения и перспектив возрождения: автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2010. – 56 с.

¹⁸ Джалилов О.З. Проблемы и перспективы развития историко-культурного туризма в Узбекистане (1991–2010 гг.): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2011. – 56 с.

¹⁹ Хусанбаев Б.М. Социально-экономические аспекты комплексного развития туризма в республике. автореф. дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1996. – Б. 56.

tadqiqotlarida milliy turizm boshqaruvi, hududlarda madaniy va ekoturizm samaradorligini oshirish, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida turistik resurslardan samarali foydalanish hamda xalqaro turizm marketingida “O‘zbekturizm”ning o‘rni²⁰ kabi masalalar o‘rganilgan.

Tarix yo‘nalishida 20 ga yaqin ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, Sh.A. Miraliyeva tarixiy shaharlardagi ochiq osmon osti muzeylarini virtuallashtirish va ularning turizm rivojidadagi ahamiyatini tadqiq etgan²¹ bo‘lsa, M.X. Siddiqova o‘z ilmiy ishida Samarqand shahrida turizm xizmati va infratuzilmasini rivojlantirish hamda mavjud muammolar²² masalasiga alohida e‘tibor qaratgan.

Shuningdek, M.F.Rasulov²³, M.S.Muhamedova²⁴, M.Sh.Mansurov²⁵, R.B.Anyozov²⁶, J.Y.Ergashev²⁷, A.Z.Mo‘minov²⁸, H.S.Murodov²⁹, G.A.Egamberdiyeva³⁰, D.K.Bobojonov³¹ va M.A.Rasulovalarning³² tadqiqotlari sohaning turli masalalari va muammolarini tahlil qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi bosqichga mansub mazkur tadqiqotlarda, birinchidan, ko‘plab dalillar keltirilsa, ikkinchidan, ular o‘zining nisbatan xolisligi bilan ajralib turadi. Ichki turizmni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lgan ziyorat turizmi borasida Z.Q.Abidova³³, F.Sh.Aqchayev³⁴, F.B.Xayitova³⁵, S.N.Jo‘rayeva³⁶ va

²⁰ Норчаев А.Н. Халқаро туризмнинг ривожлантиришнинг иқтисодий ўсишга таъсири (Испания мисолида): иқт. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 150.

²¹ Миралиева Ш.А. Виртуал музейлар яратишнинг жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истикболлари: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 56.

²² Сидикова М.Х. Самарқандда замонавий шаҳар маданиятининг ривожланиш хусусиятлари (1991–2017 йй.): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 56.

²³ Расулов М.Ф. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларнинг аҳволи ҳамда уларга бўлган муносабатнинг трансформацияси (1980–2019): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – Б. 56.

²⁴ Мухамедова М.С. Ўзбекистон тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истикболлари (XX аср II ярми – XXI аср бошлари): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 56.

²⁵ Мансуров М. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980–2018 йй.): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 56.

²⁶ Анёзов Р.Б. Марказий Осиё карвон йўллари инфратузилмалари ва хизмат кўрсатиш соҳалари (XIV–XIX асрлар. Хоразм воҳаси мисолида): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Нукус, 2021. – Б. 56.

²⁷ Эргашев Ж.Й. Бухоро хонлиги карвон йўлларида хизмат кўрсатиш тизими (XVI–XVIII аср ўрталари): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – Б. 56.

²⁸ Мўминов А.З. Ўзбекистонда экологик туризмнинг ривожланиш жараёнлари (1991–2020 йй.): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 56.

²⁹ Муродов Ҳ.С. Бухорода туризмнинг ривожланиши тарихи (1991–2021 йй.): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – Б. 56.

³⁰ Эгамбердиева Г.А. Трансформационные процессы в Узбекистане в сфере туризма (1991–2020 гг.): автореф. дисс. (PhD) докт. филос. ист. наук. – Тошкент, 2022. – Б. 56.

³¹ Babojonov D.K. “Ichon-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi tarixi (1920–2020-yy.): tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Urganch, 2023. – Б. 56.

³² Rasulova M.A. Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda turizm sohasining shakllanishi hamda rivojlanishi: istiqbollar va muammolar: tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2025. – Б. 56.

³³ Абидова З.Қ. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. Тошкент, 2018. – Б. 56.

³⁴ Акчаев Ф.Ш. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2020. – Б. 7-8.

³⁵ Хайитова Ф.Б. Ўзбек халқи этномаданиятида зиёрат ва зиёратгоҳлар тарихи (Қашқадарё воҳаси мисолида): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2021. – Б. 56.

³⁶ Джураева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни: тар. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 56.

Sh.U.Bobojonovlar³⁷ ziyorat turizmining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning shakl va turlari, ziyoratgohlar infratuzilmasi, ziyorat odobi va qoidalari, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ziyorat turizmining qo‘shayotgan ulushi masalalarini tadqiq etishgan.

Ikkinchi bosqichda turizm sohasiga oid iqtisodiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar M.T.Aliyeva, A.A.Eshtayev, Sh.R.Ruziyev, A.F.Abduraxmanova va O‘.Y.Ostonovlar³⁸ tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o‘z aksini topgan.

Ikkinchi guruhga MDH davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar kiritilgan bo‘lib, unga tarixchilardan M.Sokolova, I.Orlov va A.Popov, Y.Suprunenko, A.Martinov, Y.Lelina va Terexanova, I.Barchukovlarning³⁹, iqtisodchilardan A.Aleksandrova, M.Sushinskaya, L.Efanova va V.Polyakova, V.Gordin va L.Xoreva, A.Baisakalava va V.Garkavenko, A.Pala kabilarning ishlarini⁴⁰ ko‘rsatish mumkin.

Bundan tashqari, **uchinchi guruhga** mansub xorijiy tadqiqotchilar – G. Sazak, K. Kantarji, M. Uysal, V. Magnini, A. Ablayeva va S. Horaklar⁴¹ning ilmiy ishlari ham turizmning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Mavzu doirasida uchta asosiy yondashuv ishlab chiqildi. Birinchi – iqtisodiy-tarixiy yondashuv bo‘lib, unda turizm tarixiy shakllangan iqtisodiy tizim sifatida o‘rganildi. Ikkinchi – ijtimoiy-tarixiy yondashuv asosida turizmning davlat siyosati, aholi bandligi, madaniy meros muhofazasi va kadrlar salohiyati bilan

³⁷ Bobojonov Sh.U. Buxoro vohasida ziyorat sayyohligining rivojlanish xususiyatlari (antropologik tadqiqot): tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 56.

³⁸ Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): иқт. фанл. докт. ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 264.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси: иқт. фанл. докт. ... дисс. – Самарқанд, 2019. – Б. 263.; Рузиев Ш.Р. Ўзбекистонда тарихий-маданий туризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизми такомиллаштириш: иқт. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б. 56.; Abduraxmanova A.F. Hududlarda ekologik turizm salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida): iqt. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – B. 56.; Ostonov O‘.Y. Qishloq turizmini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida): iqt. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – B. 56.

³⁹ Соколова М. История туризма. – Москва: Академия, 2012. – С. 352.; Орлов И. Попов А. Сквоз «железный занавес». See USSR!: иностранные туристы и призрак потемкинских деревен. – Москва: Высшей школы экономики, 2018; Орлов И., Попов А. Сквоз «железный занавес». Руссо туристо: советский выездной туризм, 1955–1991. – Москва: Высшей школы экономики, 2016; Супруненко Ю. Казан. Между Востоком и Западом. – Москва: Вече, 2013. – С. 320; Мартынов А.И. Недвижимое историко-культурное наследие Сибири, музеи и туризм // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств, 2018. – №45. – С.

203–207; Лелина Е., Тереханова А. Историко-культурный туризм в современном образовательном пространстве // Алманах современной науки и образования. 2016. – №7 (109). – С. 56–63; Барчуков И. Методы научных исследований в туризме. – Москва: Академия, 2008.

⁴⁰ Александрова А. Статистика туризма. – Москва: 2014. – 464 с.; Сушинская М. Культурный туризм. – Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского государственного университета экономики и финансов, 2010. – 128 с.; Ayhan Pala. A Chronology of Central Asia // Tourism in Central Asia: cultural potential and challenges. – Toronto-New Jersey: Apple Academic Press, 2014. – P. 331–361.

⁴¹ Sazak G. Bukhara: The Princess of Cities. Tourism in Central Asia. – Toronto-New Jersey: Apple Academic Press, 2015. – P. 67–91; Kantarci K., Uysal M., Magnini V. Exploring Tourism Potential in Central Asia. Tourism in Central Asia. – Toronto-New Jersey: Apple Academic Press, 2015. – P. 1–15; Ablayeva A. Kazakhstan turizminde İpek Yolunun yeri ve önemi: yüksek lisans tezi. – Istanbul: Istanbul Üniversitesi, 2013. – 190 b.; Horak S. Visa Regimes and Regulatory Documents as an Obstacle for Tourism Development in Central Asia. Tourism in Central Asia. – Toronto-New Jersey: Apple Academic Press, 2015. – P. 245–246.

bog‘liq jihatlari tahlil qilindi. Uchinchi – hududiy-lokal yondashuv orqali Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari misolida turistik infratuzilma, xizmat ko‘rsatish sifati, transport logistikasi hamda hududiy muammo va imkoniyatlar o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida turizmni tashkil etishda davlat siyosatining amalga oshirilishi (1991–2016-yillar)”** deb nomlanib, ushbu bobda turizmni rivojlantirishda joylashtirish vositalarining o‘rni, ularni tashkil etish bilan bog‘liq muammolar, xizmat ko‘rsatish sohasining turizm taraqqiyotidagi ahamiyati hamda mehmonxona infratuzilmasining holati tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning **“Turizmning rivojlantirishda joylashtirish vositalarining o‘rni va ularni tashkil etishdagi muammolar”** nomli birinchi faslida mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston turizm sohasining holati, “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining tashkil etilishi, turizm boshqaruvi tizimining shakllanishi, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarining ahvoli hamda milliy turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi natijalari tahlil qilingan.

Umuman olganda, 1992-1993-yillarda O‘zbekistonda turizmni qayta tiklash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish borasida milliy kompaniya tomonidan olib borilgan tadbirlar natijasida 1991-yilda 12 ta mehmonxona va ulardagi o‘rinlar soni 3 953 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1993-yilga kelib respublikadagi turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar soni 19 taga, ulardagi o‘rinlar soni esa, 6 583 taga (2-jadval) yetdi⁴². Mazkur mehmonxonalar avvalgi toifaga ajratish ko‘rinishida, ya’ni 19 tadan 1 tasi oliy “A”, 9 tasi oliy “B”, 4 tasi I toifa, 5 tasi II toifaga tegishli bo‘lib, toifaga qarab turarjoylar va xizmat ko‘rsatish narxi va sifati bir-biridan farq qilgan.

1990-yillarning birinchi yarmida davlat tasarrufidagi mehmonxona⁴³larning asosiy qismi Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarda joylashgan edi. Jumladan, Samarqandda “Sayyoh” va “Samarqand” mehmonxonalarida 901 ta, Urganch va Xivada “Xorazm”, “Jayhun”, “Navro‘z” hamda “Xiva” mehmonxonalarida 727 ta, Buxorodagi “Buxoro”, “Varaxsha” va “Guliston” mehmonxonalarida esa 1 063 ta o‘rin mavjud bo‘lgan.

Turizm boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda mehmonxonalarni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida yangi huquqiy-me‘yoriy asoslar ishlab chiqildi. Xususan, 1993-yilda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi vaqtinchi nizom qabul qilinib, mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratildi⁴⁴. Mazkur nizom asosida avvalgi oliy “A”, oliy “B”, I va II toifa

⁴² O‘zMA. M-141-fond, 1-ro‘yxat, 9-ish, 117–120-varaqlar.

⁴³ Mehmonxona bu – sayyohlar va boshqa fuqarolarni joylashtirish va ularga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan, kamida 10 ta xona va turistik emblemaga ega bo‘lgan 24 soatlik korxona; Motel – avtoturistlarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan va moslashtirilgan avtomagistral yaqinida joylashgan mehmonxona; Kemping – turistlarni tabiiy dam olish zonalarida joylashtirish va xizmat ko‘rsatish uchun moslashtirilgan va 5 dan ortiq xonaga ega mehmonxona; Xizmat – turistlarni joylashtirish, ovqatlanish va yashash uchun qulayliklar yaratish bilan bog‘liq xizmatlar majmuasi.

⁴⁴ O‘zMA. M-141-fond, 1-ro‘yxat, 9-ish, 92–94-varaqlar.

tizimi o'rniga mehmonxonalarni 1 yulduzdan 5 yulduzgacha bo'lgan xalqaro tasnif asosida baholash amaliyoti joriy etildi.

2000-yildan boshlab Samarqandda yangi mehmonxonalar jadal qurila boshlangach, "Afrosiyob" o'z mavqeyini yo'qota boshladi. Raqobat kuchayishi va zamonaviy xizmat ko'rsatish talablariga javob bera olmaslik 2015-yilda "Afrosiyob" mehmonxonasining to'liq yopilishiga olib keldi. Servis xizmati ko'rsatish va uni rivojlantirish har bir mehmonxona ma'muriyatining o'ziga bog'liq bo'lib, shu sabab narxlar ham turlicha bo'lgan. Masalan, "Prezident palace"da ayni paytda bir nafar xorijlik sayyoh bir kecha-kunduz dam olishi uchun 55 AQSh dollari, "Afrosiyob palace"da esa, 32 AQSh dollari to'laydi⁴⁵. Bu toifa "Central Samarkand"da 12 dollarni, "Otel Samarkand"da 8 dollarni tashkil etadi. Xususi mehmonxonalar esa, xorijlik mehmonlardan kelishilgan narxda o'rtacha 8–10 AQSh dollarida xizmat ko'rsatishar edi. 1994-yildagi respublika "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va uning tasarrufidagi tashkilotlar 434,5 mingta sayyoh hamda mahalliy fuqaroga xizmat ko'rsatdi. Ularning 58,8 ming nafari xorijlik va MDH mamlakatlari fuqarolaridir. Chet el mamlakatlari bilan bevosita 326 ta shartnoma tuzildi. Shundan 181 tasi xorijiy firmalar bilan kelishuvlar edi. Ammo tuzilgan shartnomalarning faqat 30%i amalda qo'llanildi. Ularning ham asosiy qismi kirish turizmi emas, balki chiqish – sayyohlar chetga jo'natish tashkil etgan. Shunga qaramay, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va uning viloyatlardagi mintaqaviy boshqarmalari ko'rsatgan xizmatlarning umumiy hajmi rejada belgilanganiga nisbatan 171,2 foizga bajarildi⁴⁶.

Islahotlar va "Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi yubileyining 1997-yilda o'tkazilishi bilan bog'liq chora-tadbirlar natijasida mazkur yilda O'zbekiston turizmi ijobiy o'zgarishlarga erishib, JST statistikasiga ko'ra, 1997-yilda turistlar soni qariyb 1 millionga yetib, ko'rsatilgan sayyohlik xizmatlarining hajmi, eksport daromadi deyarli 200 million dollarni tashkil etgan. Taqqoslasak, 1996-yilda turistlar oqimi soni 173 ming kishini, turizm daromadi esa, 15 million dollarni tashkil etganini hisobga olsak, turizm rivojlanishida va sayyohlar sonini ko'paytirishda turli xil xalqaro tadbirlar va targ'ibot-tashviqotning kuchi qanchalik darajada ahamiyatli ekanligini yaqqol namoyon qildi. Bu natija keyingi 10 yil davomida biror marta qayd etilmadi⁴⁷. O'zbekiston turizmining markazlari Samarqand, Buxoro va Xivaga sayyohlar tashrifi va xizmat ko'rsatish sohasi rivojiga 2008-2009-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri sezildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yilning 13-martdagi "Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 60-sonli qarori katta o'zgarishlarga sabab bo'lib, turizmga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarga keng imkoniyatlar yaratdi⁴⁸.

1990-yillarda Xorazm, ayniqsa Xiva shahri turizmi rivojiga ichimlik suvining sifatsizligi, oziq-ovqat mahsulotlaridagi zaharli kimyoviy moddalar va yashil

⁴⁵ Sayyohlar Samarqandga oshiqyaptimi? // Xalq so'zi, 2004-yil 10-mart, 48-son.

⁴⁶ Kengash Samarqandda o'tkazildi. // Xalq so'zi. 1995-yil 22-mart, 56-son.

⁴⁷ International tourism, number of arrivals – Uzbekistan | Data (worldbank.org), (murojaat sanasi: 10.05.2024).

⁴⁸ BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 27-yig'ma jild, 344-varaq.

hududlarning qisqarishi kabi ekologik muammolar salbiy ta'sir ko'rsatgan⁴⁹. Milliy arxiv hujjatlari tahlili Xiva turizmida ijobiy o'zgarishlar 1996-yildan boshlanganini ko'rsatadi. Xiva turistik sayr majmuasining 1996-yilgi hisobotiga ko'ra, mehmonxona xizmatlari rejasi 154,6 foizga, sayyohlarni jo'natish rejasi 115,9 foizga bajarilib, umumiy foyda 500 ming so'm o'rniga 990 ming so'mni tashkil etgan. Sayyohlar soni esa rejalashtirilgan 5,1 ming kishidan 8,12 ming kishiga yetgan⁵⁰. Ushbu o'sishga "O'zbekfilm" kinostudiyasining Xivada "Buyuk Amir Temur va Marg'iyona" filmini suratga olish jarayonida turistik majmua tomonidan mehmonxona, ovqatlanish va transport xizmatlari ko'rsatilgani sabab bo'lgan. Natijada xizmat ko'rsatish hajmi kuniga 4 275 kishiga yetib, 4,2 million so'm foyda olingan. Bu esa yirik tadbirlar va kinofilmlar suratga olinishi turizm rivojiga muhim ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Ushbu bobning ***"Turizmning taraqqiy etishida xizmat ko'rsatish sohasining roli va infratuzilma bilan bog'liq muammolardagi o'zgarishlar"*** nomli ikkinchi faslida O'zbekiston turizmidagi infratuzilma, xizmat ko'rsatish, boshqaruv va hududlardagi o'ziga xos muammoli masalalar tahlilga tortilgan. Xalqaro va milliy turizmning rivojlanishi faqat tarixiy obidalar yoki tabiiy go'zalliklar bilan emas, balki xizmat ko'rsatish sohasi, ayniqsa, mehmonxona infratuzilmasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'ramiz. Chunki zamonaviy sayyoh faqat tarixiy yodgorliklarni tomosha qilishni emas, balki qulay yashash, transport, oziq-ovqat, axborot texnologiyalari va boshqa servis xizmatlaridan foydalanishni o'z sayohatining jozibadorligi sifatida ko'radi hamda bu boradagi qulayliklar sayyohlarning qayta tashrif buyurishlari uchun o'ziga xos "tashrif qog'ozi" vazifasini o'taydi. Ayniqsa, 1992–1994-yillarda sayyohlar O'zbekistonga kelish uchun dastlabki qadam bu viza olish masalasi bo'lib, bunda rasmiylashtirish talablarining ko'pligi va uni olish muddati cho'zilib ketgan. Undan so'ng aeroportga kelib tushgandan so'ng "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tomonidan yuk qabul qilish punktlariga xorijiy turistlarning yuklarining tez yetkazilishi uchun transport va ishchi kuchining yetishmasligi, aeroportdagi bojxona rasmiylashtirilishida xaymonlarning⁵¹ yetarli bo'lmaganligi tufayli sayyohlar kamida 5–7 soatgacha bojxona nazoratida qolib ketishgan⁵². Bu jarayonda sayyohlarning asabiylashishiga va norozi bo'lishiga bekordan bekorga vaqt sarflashiga sabab bo'lganligi hamda xizmat ko'rsatishning xalqaro standartlardan ancha past saviyadaligi kabi bir qator kamchiliklar bo'lib, bu esa, endigina qayta tashkil etilayotgan milliy turizm sohasida O'zbekiston imijiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar qatoriga kirar edi. Tahlillarga ko'ra, O'zbekiston turizmidagi sayyohlar tashriflarining kamayishining ichki sohadagi xizmat ko'rsatish yoki infratuzilma bilan bog'liq muammolardan tashqari xalqaro sabablari ham mavjud. O'zbekiston turizmi 2002-yil oktabr–dekabrda turistik

⁴⁹ Ro'zimatov B. Xorazmda chet el sayohatchiligi istiqbollari // Xorazm haqiqati. 1993-yil 16-fevral.

⁵⁰ O'zR MA. M-141-fond, 1-ro'yxat, 171-ish, 5–7-varaqlar

⁵¹ Bojxona xaymonlari – bu bojxona organlari tomonidan tovarlar va transport vositalarini tekshirish, ruxsat berilgan yoki taqiqlangan narsalarni aniqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va nazorat qilish maqsadida foydalaniladigan maxsus xizmat itlari yoki maxsus uskuna hisoblanadi.

⁵² O'zMA. M-141-fond, 1-ro'yxat, 38-ish, 107-varaq.

maqsadlarda bron qilingan safarlarning 90%i bekor qilindi. Sayohatlar qariyb nolga teng bo‘lib qoldi.

Sayyohlarni qiziqtiradigan ilmiy asoslangan ma’lumotlarni yetkazish va ularning safari mazmunli o‘tishi gid-ekskursovodlar uchun muhim ma’suliyat yuklaydi. Bu esa, ulardan nafaqat xorijiy tillarni bilish, balki vatan tarixi va madaniyati, milliy qadriyatlarimizga oid boy bilim, kasb malakasiga ega bo‘lishni ham talab qiladi. Shu bois, 2012-yilda Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasida gid-ekskursovodlar tayyorlash va malakasini oshirish Markazi tashkil etildi⁵³. Lekin bu amalga oshirilayotgan choralar hali yetarli emas edi. Bu muammo o‘n yildan keyin ham, ya’ni 2015-yilda ham respublikada turizm va servis sohasida kadrlar tayyorlaydigan mavjud 5 ta oliy o‘quv yurti va 11 ta kasb-hunar kolleji faoliyat ko‘rsatganda ham dolzarbligini yo‘qotmadi⁵⁴. Mazkur maxsus o‘quv yurtlarida ichki imkoniyatlarni kengaytirish, xalqaro talablarga javob beradigan yangi o‘quv yurtlarini ochishni va ta’limning turli turlarini tashkil etishni davrning o‘zi taqazo etayotgan edi. Mazkur davrda yurtimizning havo darvozalari sanalgan Samarqand, Buxoro va Xiva aeroportlarining muammo va o‘zgarishlari ham yoritilgan.

2000–2010-yillarda Samarqand, Buxoro va Xivada turizm sohasining holati, uning ijobiy tomonlari va kamchiliklari xususida arxiv hujjatlari bilan bir qatorda asosiy turistik veb-saytlarda⁵⁵ sayyohlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Eski shahardagi Nodir Devonbegi madrasasida “Buxoroturist” hissadorlik jamiyati restoranida sayyohlarning dam olishlari uchun folklor-etnografik musiqiy dam olish dasturi va o‘zbek ayollarining milliy kiyimlari va qadimiy matolar nusxalaridan zamonaviy dizaynda tikilgan kiyimlar namoyishida Irina Sharipova boshchiligidagi “Ovatsiya” modalar uyining ishtiroki turistlarga o‘zgacha ruh berdi⁵⁶. Xivada chet ellik sayyohlar oqimining o‘sishiga, turizmning rivojlanishiga hamda unga xizmat qiladigan infratuzilmaning zamon talablari darajasiga yetkazilishiga 1997-yilgi Xivaning 2500 yillik yubileyi tadbirlari va uning natijasida Xiva shahrini obodonlashtirish, aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash, aloqa-transport, maishiy va sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilishi⁵⁷, 1999-yil 21-aprel Xiva shahrida Jahon sayyohlik tashkiloti Yevropa Komissiyasi 34-sessiyasi seminarining o‘tkazilishi kabi katta va xalqaro tadbirlar joylashtirish vositalari va boshqa xizmat ko‘rsatish infratuzilmalari sohasining o‘sishiga ijobiy ta’sir qildi. “Shuhrat” medali sohibi, Xivada mustaqillik bilan tengdosh birinchi xususiy mehmonxona ochgan Sobirjon Hasanov boshchiligidagi “Sobir Arkanchi” mehmonxonasi Ichan Qal’a – Xiva shahrining qadimiy va tarixiy markazining tashqarisida, Shimoliy darvoza (Polvon Darvoza) yaqinida joylashgan bo‘lib, bu uni sayyohlar uchun joylashuv jihatdan qulay maskanlardan biriga aylantirgandir.

⁵³ Hasanov G‘. Gidlar bilim va tafakkuri keng insonlar bo‘lmog‘i kerak. // Samarqand. 2013-yil 14-fevral. 7-son.

⁵⁴ Suyunov S. Mahmudov S. O‘zbekistonning sayyohlik imkoniyatlari // Samarqand. 2015-yil 21-fevral, 7-son.

⁵⁵ TripAdvisor; booking.com; expedia.com; hotels.com; agoda.com.

⁵⁶ BVDA, M-1503-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 12-15-varaqlar.

⁵⁷ Xorazm to‘yga chorlayapti // Xalq so‘zi, 1997-yil 15-oktyabr, 211-son.

Xorazm viloyati turizm boshqarmasining joriy arxivi ma'lumotlariga ko'ra,⁵⁸ 2012–2016-yillar mobaynida ma'lum liberal yangi tartiblar tufayli turoperator va turagentlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni 10 tadan 20 taga yetdi. Ushbu davrda turistik tashkilotlar soni 2 barobar oshib, aynan Xiva tumanida (shahrida) 8 ta, Urganch shahrida 9 ta, Urganch tumanida 1 ta, Hazorasp tumanida 1 ta va Bog'ot tumanida 1 ta turfirma faoliyat ko'rsatgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda yangicha davlat siyosati yuritilishining Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida turizm taraqqiyotiga ta’siri (2017–2024-yillar)”** deb nomlanib, uning birinchi fasli **“Viza va bojxona siyosatidagi o‘zgarishlar hamda xavfsiz turizmi ta’minlanishi”** deb ataladi. O‘zbekiston turizmi jadal rivojlanish bosqichini pandemiyagacha bo‘lgan davrda, ya’ni 2017–2019-yillarda amalda namoyon etdi. Bu jarayonning asosiy omili Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan keng qamrovli islohotlar bo‘ldi. 2016-yil 6-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁵⁹ PF-4861-sonli Farmon bilan turizm sohasida yangi islohotlar davri boshlandi. Jahon turizmi rivojini kuzatish, rivojlanish omillarini o‘rganish natijasida O‘zbekistonga kirish turizmi uchun yanada keng qulayliklar yaratish bilan ortiqcha vaqt va ovoragarchiliklarga (suhbat, qog‘ozbozlik kabilar) chek qo‘yish uchun elektron kirish vizalarini (e-visa) berish, ya’ni amaliyotga qo‘llash tizimini yo‘lga qo‘yish masalasi bo‘yicha tayyorgarliklar 2017-2018-yil boshlarida jadal olib borildi.

Shuningdek, 111 ta xorijiy mamlakat fuqarosiga ko‘chmas mulk sotib olish sharti bilan O‘zbekistonda yashash guvohnomasini olish huquqi amaliyotga kiritildi. O‘zbekiston hukumati qaroriga ko‘ra⁶⁰, 2024-yildagi 30 kun muddatga vizasiz kirishi mumkin bo‘lgan davlatlar soni 79 tadan 2025-yilda 86 taga yetib, jumladan, ushbu ro‘yxatga Bahrayn, O‘mon, Iordaniya, Qatar, Quvayt, Saudiya Arabistoni va Xitoy fuqarolari ham qo‘shildi. Amalga oshirilayotgan ushbu chora-tadbirlar mintaqaning sayyohlik imkoniyati kengayishiga, mamlakatga keladigan turistlar sonining oshishiga imkon yaratib, ortiqcha rasmiyatchilik va ovoragarchiliklarga barham berdi. 2018-yilning 15-iyulidan boshlab e-visa.uz kirish vizalarini (elektron vizalar) rasmiylashtirish va taqdim etish jahondagi 51 davlat fuqarolari uchun yo‘lga qo‘yildi⁶¹. Buning natijasida O‘zbekistonga kirish vizasini olish uchun xorijiy fuqarolar diplomatik vakillik yoki O‘zbekistonning chet ellardagi konsullik idorasiga rasmiy murojaat qilishi shart bo‘lmay qoldi. e-visa.uz 30 kun muddatga O‘zbekiston hududida bo‘lish huquqini beradi va taqdim etilgan kundan boshlab 90 kun muddat ichida foydalanish mumkin.

Jahon standartlariga muvofiq, sayyohlik salohiyatini yuksaltirish, turistlar oqimini ko‘paytirish, shuningdek, ularga qulay va xavfsiz sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrda “Buxoro, Samarqand,

⁵⁸ Xorazm viloyati turizm sohasini rivojlanish tendensiyalari to‘g‘risida ma’lumot. – Urganch, 2017. Xorazm viloyati turizm boshqarmasi joriy arxivi. 24.09.2025.

⁵⁹ Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining ertangi kuni. // Xalq so‘zi. 2018-yil 23-fevral, 37-son.

⁶⁰ “O‘zbekiston fuqarolari 40 ga yaqin davlatga vizasiz va yana 42 ta davlatga esa soddalashtirilgan tartibda kirish imkoniyatiga ega” // Yangi O‘zbekiston, 2025-yil 2-avgust.

⁶¹ PQ-3836-son 04.07.2018. O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-3810649>

Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-sonli qaroriga ko'ra, tegishli vazirlik va qo'mitalar va to'rt viloyat hokimliklari tomonidan ishlab chiqilgan va qarorda belgilangan shaharlarda xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiyasi ma'qullandi. Mazkur hududlarda 2018-yil 1-yanvardan boshlab xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmalari tashkil qilindi⁶². Xavfsiz turizmni yanada yuqori darajada ta'minlash uchun yana bir qulay va tezkor xizmat 2021-yil fevralda IIV Xavfsiz turizmni ta'minlashni muvofiqlashtirish boshqarmasi tomonidan ishga tushirilgan Call-markazga "1173" qisqa raqami orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Bu kabi xavfsizlik sohasida yaratilgan yangicha tizim va qulayliklar turistlarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qildi.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida ***"Mehmonxonalar, turistik firmalar faoliyati va xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zgarishlar"*** masalalari tahlil qilingan.

Turizmga davlatning strategik sohasi sifatida e'tibor qaratilishi natijasida sayohatning asosiy uchta turi: ichki turizm, kiruvchi turizm va chiquvchi turizmning o'sib borishiga yo'l ochdi. Jumladan, O'zbekistonga 2017-yilda jami sayohat qiluruvchilar soni 10 018 440 kishini tashkil etib, shundan kiruvchi turizm 2 690 074 kishini, chiquvchi turizm esa, 5 182 487 kishini hamda ichki turizmga sayohat qilganlar soni 2 145 879 nafarni tashkil etib, umumiy hisobda jami sayohat qiluruvchilarning 29,83%ga, ya'ni 2 988 251 nafar turistga mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, turistik firmalar, sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish va turistik bazalar tomonidan xizmat ko'rsatilgan⁶³. Ushbu statistika O'zbekistonda turizm sohasining davlat tomonidan strategik soha sifatida e'tibor berilishi amalda o'z samarasini bera boshlaganini ko'rsatadi. O'zbekiston miqyosida xalqaro va ichki turizmni jadal rivojlantirishda tarixiy markazlardagi muzey-qo'riqxonalarining muhim o'rnini 2018-yilda O'zbekistonda amal qilayotgan 149 ta turistik marshrut ro'yxatining 117 ta turmarshrutda Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarining borligi ham dalil bo'la oladi⁶⁴. Bu borada tadqiqotchi olim M.Muxamedova⁶⁵ ham turistik marshrutlar, asosan, Toshkent shahri, Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasi, Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi va Xiva "Ichon-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi bo'ylab tashkil qilinganligi qayd etgan.

Milliy turizm bozorining keng qamrovli ekanligini sayohatning uch turi misolida tahlil qiladigan bo'lsak, bunda chiquvchi turizm (xalqaro) asosiy ko'rsatkichni qayd etgan. Bu esa, mahalliy aholining xorijga sayohat qilish yo'nalishining ustunligini ko'rsatadi. Bu holat mahalliy aholi daromadlarining bir qadar oshirilishi hamda mamlakatda sayyohlikni qo'llab-quvvatlash strategiyasining ijobiy tomonga o'zgargani bilan izohlanadi. Chiquvchi (xalqaro) sayyohlarning son jihatdan ko'pligi O'zbekistondan valyuta chiqib ketishiga olib

⁶² Худойқулов Т. Хавфсиз туризм ходимларига рус ва инглиз тилини билиш талаби қўйилади // Ўзбекистон овози. 2019 йил 18 июн.

⁶³ О'zbekistonda turizm. Statistik to'plam. – Toshkent, 2018. – B. 27–29.

⁶⁴ О'zbekistonda turizm. Statistik to'plam. – Toshkent, 2018. – B. 148–161.

⁶⁵ Muxamedova M.S. O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan obyektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari (XX asr II yarmi – XXI asr boshlari): tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 20.

keladi, lekin ichki va kiruvchi turizmni rivojlanish darajasi ham chiquvchi turizm darajasiga teng bo'lsa, unda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga salbiy ta'siri bo'lmaydi. Turizm sohasida o'tkazilgan tajriba hamda jahon amaliyoti sayyohlarni jo'natish va qabul qilish o'rtasida quyidagi nisbatni, ya'ni 70:30% nisbatni qariyb mukammal deya dalolatlaydi.

2022-yilda Silk Road Samarkand turizm majmuasi 260 gektar maydonni egallab, qisqa muddat ichida Markaziy Osiyodagi eng yirik turistik klaster sifatida 8 ta 5 va 4 yulduzli mehmonxona, 14 ta ekologik kottej (Eco Village), kongress-markaz, restoranlar, savdo maydonchalari, bog'lar va "Boqiy shahar" ("Eternal City") madaniy hududidan iborat. Shuningdek, tadbirkorlik subektlari tomonidan mehmonxona sohasida dunyoning TOP-50 taligiga kiruvchi mehmonxona brendlari jalb etildi. "Hilton" (AQSh), "Accor" kompaniyasining "Movenpick" (Fransiya), "Welness Hotel" (Avstriya) va "Minyoun" (Xitoy) xalqaro mehmonxona brendlari jalb etildi. Samarqand shahrida loyiha qiymati 25 milliard so'mlik "Evro Azia" savdo va ko'ngilochar majmuasi va loyiha qiymati 28 milliard so'mlik "Visol premium" restorani foydalanishga topshirilganligi ham xalqaro andozalar darajasidagi turizm infratuzilmasining barpo etilayotganligidan dalolatdir⁶⁶. 2017-yilda Buxoro viloyatida turistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko'lamini yanada oshirish maqsadida sayyohlik axborot markazlari tashkil etildi. Ushbu sayyohlik axborot markazlarida xorijiy hamda mahalliy sayyohlarga taqdim qilish uchun Buxoroning turizm salohiyatini aks ettiruvchi materiallar, jurnallar, bukletlar hamda Buxoro shahrining sayyohlik xaritalari va tarqatma materiallar, qo'llanmalar bilan bepul ta'minlangan. Shuningdek, sayyohlarga sim kartalar sotish, taksi xizmati, gid-tarjimonlik xizmati, mehmonxonalarga buyurtma qilish va boshqa shu kabi pulli xizmatlar tashkil etilgan. Buxoro viloyatida ilk marta 2018-yilda 5 ta sayyohlik axborot markazi tashkil etilib, 2019-yil markazlar soni 18 taga yetdi⁶⁷. Pandemiya tufayli 2020-yilda Buxoroga tashrif buyurgan sayyohlar soni atigi 249 927 ming nafarga yetdi. Bunda mahalliy sayyohlar soni 236 602 kishini va xorijiy turistlar soni 13 325 nafarni tashkil etdi⁶⁸. Pandemiya tufayli ushbu davrda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan sayyohlik tashkilotlarini davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash choralari doimiy ravishda olib borildi. Natijada sohada bunyodkorlik ishlari davom etib, 2020-yilda Buxoro shahrida 78 o'rinli "Ark", 60 o'rinli "Dendi Plaza", 50 o'rinli "Shoh", 42 o'rinli "Dargoh" mehmonxonasi qurilishi yakunlanib, ishga tushirildi⁶⁹. Pandemiya sharoitiga qaramasdan turizm biznesi bo'yicha davlat tomonidan yaratib berilgan imtiyoz, preferensiya va qulayliklar tufayli, 2020-yil oktabr hamda noyabr oylaridan asosan kichik mehmonxonalar ichki turizm hisobidan tiklanish davrini asta-sekin boshlab berdi. 2022-yil 18-aprel kuni Buxoro

⁶⁶ Samarqand viloyati turizm boshqarmasi joriy arxivi. Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha 2022-yil amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi rejalar bo'yicha ma'lumot. 07.29.2025

⁶⁷ Buxoro viloyati turizmni rivojlantirish departamenti joriy arxivi. Buxoro viloyatida 2019-yil yanvar-dekabr oylarida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisoboti. 01.01.2020-yil holati.

⁶⁸ <https://telegra.ph/Buxoro-viloyatida-turizm-sohasida-2020-yilda-amalga-oshirilgan-ishlar-hamda-2021-yilda-belgilangan-vazifalar-mavzusida-matbuot-a-02-25-2>

⁶⁹ Buxoro viloyati turizmni rivojlantirish departamenti joriy arxivi. Buxoro viloyatida 2020-yilda turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot. 01.01.2021

shahridagi “Sayqal” restorani xalqaro standartlarga javob beradigan “Halol” sertifikatini olishga muvaffaq bo‘ldi⁷⁰. “Sayqal” restorani Buxorodagi birinchi Xalqaro “Halol” sertifikatiga ega ovqatlanish shaxobchasiga aylandi. Xulosa qilib aytganda, ziyorat turizmiga e’tibor natijasida 2021-yilda ziyoratchilar sayohat qiladigan qadamjolar 2017-yilga nisbatan 21 foizga ko‘payib 29 taga yetdi.

Xiva shahrida uzoq yillar davomida saqlanib qolgan muammolardan biri Tashqi ishlar vazirligining hududiy konsullik bo‘limi mavjud emasligi edi⁷¹. 2016-yilgacha xorijiy sayyohlar va turoperatorlar viza masalalarini hal etish uchun Toshkentga murojaat qilishga majbur bo‘lib, bu qo‘shimcha vaqt va xarajatlarga sabab bo‘lard. Shuningdek, hujjatlar yo‘qolishi yoki viza bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelganda turistlar hududning o‘zida konsullik yordamini ololmas edi. Bu holat Xiva turizmining xalqaro imijiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 21-dekabrda PQ–2689-son qaroriga muvofiq Samarqand, Buxoro, Urganch va Nukus shaharlarida Tashqi ishlar vazirligining konsullik bo‘limlari tashkil etildi⁷². Ushbu bo‘limlar bugungi kunda ham faoliyat yuritib, xorijiy fuqarolar hamda turizm sohasi subyektlariga konsullik xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Dissertatsiyaning **“Sohada mutaxassislar tayyorlash muammosi va undagi o‘zgarishlar hamda xalqaro hamkorlikning o‘rni (1991–2024-yillar)”** deb nomlangan to‘rtinchi bobining birinchi faslida **“O‘zbekiston turizmi sohasidagi kadrlar yetishmovchiligi va bu boradagi o‘zgarishlar”** masalasi tadqiq etilgan. Turizm sohasida kadrlar bu borada Samarqand viloyatida jami turizm sohasida ish o‘rni 623 ta, jumladan, Kattaqo‘rg‘on, Urgut hamda Gulbog‘ kempingi jami 38 ta ish o‘rni to‘liq shtatda ish olib borgan bo‘lsa, asosiy markaz Samarqand shahrida esa, 585 ta shtat bo‘yicha ish o‘rnidan 537 ta ish o‘rnida kadrlar faoliyat ko‘rsatib⁷³, jami 48 ta ish o‘rni bo‘sh bo‘lib, xorijiy tillarni puxta egallagan malakali mutaxassis kadrlar yetishmagan. Tahlilni mazkur turistik markazlarning alohida hududiy xususiyatlariga ko‘ra, Samarqand shahri turizmidagi kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi Buxoro va Xivadagi murakkabroq holatga nisbatan barqaror ekanligini ushbu shahardagi vakant ish o‘rinlarining kamligi bilan asoslanadi. Samarqand shahrida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurti bo‘lishiga qaramay qoloq o‘quv dasturi va tizimi xalqaro talablarga javob beradigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash imkonini bermagan. Bu esa, ta’lim tizimini isloh qilish va jahonning ilg‘or tajribalarini qo‘llashni taqozo etsada, afsuski, bu borada katta qadamlar qo‘yilmadi. Samarqand, Buxoro va Xiva shahri turizmidagi mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq tadbirlarni mazkur hududlarning o‘ziga xos muammolarini aniqlash va masalaga shu nuqtayi nazardan

⁷⁰ Buxoro viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi Ziyorat turizmi bo‘limi joriy arxivi. Ma’lumotnoma. 28.05.2022

⁷¹ Katta turistik salohiyatga ega bo‘lgan Samarqand va Buxoro shaharlarida ham O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining konsullik bo‘limlari mavjud emas edi. Faqat 1990-yillarda bu shaharlarda vaqtincha konsullik bo‘limlari faoliyat yuritgan edi.

⁷² Rahimova N.A. Mansurova N.Sh. Raximov Z.A. Samarqand viloyati turistik salohiyatining tahlili // Иктисод ва молия / Экономика и финансы. – 2022. – №6(154). – В. 43–51.

⁷³ O‘zMA. M-141-fond, 1-ro‘yxat, 40-ish, 40-varaq.

yondashish lozimligini yuqoridagi tahlillar ham tasdiqlaydi. Jumladan, sohada malakali kadrlarning tanqisligi⁷⁴, masalan, qiyosiy tahlilga ko'ra, 1993–1995-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasida jami shtat bo'yicha 575 ta ish o'rni bo'lib, shundan G'ijduvon va Romitan tumanlarida 11 ta ish o'rni hamda Buxoro shahrida esa, 564 ta ish o'rni bo'lsa-da, lekin 476 ta xodim ish bilan bandligi ta'minlanib, afsuski, malakali kadrlar yo'qligi hamda turizm tizimidagi ishchi-xodimlarga oylik maosh miqdorining kamligi sababli viloyat bo'yicha G'ijduvon va Romitan tumanlari bo'yicha 3 ta, Buxoro shahri bo'yicha esa, 88 ta vakant – bo'sh ish o'rinlari saqlanib qolgan edi⁷⁵.

Bu borada Xorazm mintaqaviy bo'limida esa, 444,5 ta ish shtati bo'lib, shundan 318 tasi faol ish bilan ta'minlanib, aynan Xiva shahrida ekskursiya byurosida 73,5 ta shtat birligidan faqat 47 tasi ish faoliyatini olib borgan⁷⁶. Bu jami shtat birliklarining qariyb 30 foizi to'liq band qilinmaganini hamda Xorazm mintaqasi turizmida kadrlar tanqisligi mavjudligini asosli ekanligini bildiradi. Biz o'rganayotgan Xiva shahri turizmida kadrlar muammosi yanada o'tkir bo'lib, sohadagi 36 foiz ish o'rni bo'sh qolganligi, albatta, Xiva tarixiy-madaniy turizmi uchun xos bo'lgan ekskursiya xizmatlari darajasining past bo'lishi va sayyohlarga o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatish ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu malakali gid-hamroh va ekskursiya mutaxassislarining yetishmasligida yanada keskin namoyon bo'lib, ayniqsa, sayyohlar sayohat ehtiyojlarini to'la qondira olmaganligini ko'rsatadi. Qolgan 371 ta ish o'rni Urganch shahridagi turizm korxonalariga tegishli bo'lib, shundan 271 tasi kadrlar bilan ta'minlangan bo'lsa, 100 ta ish o'rni vakant, ya'ni bo'sh qolgan. Xulosamizga ko'ra, yoshlarning turizm sohasiga qiziqishining pastligi, malakali kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy talablarga javob bermasligi, chet tillarni biladigan, yuqori darajadagi servis xizmati va soha bilan bog'liq ilg'or turizm texnologiyalari yo'nalishida salohiyatli mutaxassislarning yetishmasligi hamda shu bilan birga tizimda ish haqi miqdorining pastligi kabilar ushbu davrdagi kadrlar muammosining saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. 2017-yilda Samarqandda 166 ta gid-hamroh bo'lib, amalga oshirilgan sohaviy islohotlar natijasida 2024-yilda gid-hamrohlar soni 680 taga⁷⁷, 2025-yilda esa, 725 nafarga yetdi⁷⁸. Buxoro shahri va viloyati bo'yicha ham tahlil qiladigan bo'lsak, gid-hamrohlar soni viloyat bo'yicha 2017-yilda 55 nafarni, shu jumladan, Buxoro shahrida esa, 45 nafarni, 2024-yilga kelib, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida viloyat bo'yicha 350 nafarga, shahar miqyosida esa, 242 nafarga, 2025-yil yakunida gid-hamrohlar soni viloyatda jami 450 nafarga ko'payib, shundan Buxoro shahri bo'yicha 302 nafar gid-hamroh faoliyat olib

⁷⁴ O'sha joyda.

⁷⁵ O'zMA. M-141-fond, 1-ro'yxat, 40-ish, 40–42-varaqlar.

⁷⁶ O'zMA. M-141-fond, 1-ro'yxat, 40-ish, 42-varaq.

⁷⁷ Samarqand viloyati turizm boshqarmasi joriy arxivi. Samarqand viloyatida 2024-yil davomida turizm xizmatlarini kengaytirish va sohada aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ma'lumot. 01.06.2025

⁷⁸ Samarqand viloyati turizm boshqarmasi joriy arxivi. Samarqand viloyatida 2025-yil davomida turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot. 31.12.2025-yil holati.

borgan⁷⁹. Bu esa, sayyohlarga xizmat ko'rsatishda kadrlar soni va salohiyatining o'sib borayotganligini ko'rsatadi.

To'rtinchi bobning ikkinchi faslida ***“Samarqand, Buxoro va Xiva turizmi rivojida xalqaro hamkorlikning o'rni va ahamiyati”*** masalasi tahlil qilingan.

Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) Bosh kotibi Antonio Savinyakning so'zlariga ko'ra, JST rahbariyati 1993-yil iyul oyida Istanbulda bo'lib o'tgan JST seminarida O'zbekiston delegatsiyasi tomonidan ko'tarilgan Buyuk Ipak yo'li yo'nalishini tiklash loyihasini amalga oshirishga katta e'tibor qaratdi⁸⁰. JST bilan olib borilgan hamkorlik aloqalari va Ipak yo'li dasturi doirasida 2004-yilda Samarqandda ushbu tashkilotning Ipak yo'lidagi Mintaqaviy markazi tashkil etilgan edi⁸¹. O'zbekiston xalqaro turizmini rivojlantirish uchun alohida istiqbolli loyiha Ipak yo'li bo'yicha beshinchi xalqaro uchrashuv 2010-yil 8-9-oktabr kunlari Samarqand shahridagi tarixiy Registon maydonida 25 dan ortiq davlatdan 250 dan ortiq vakil (*“Dolores Travel”* MChJ bosh direktori Farhod Rasulev va boshqa bir necha mahalliy mutaxassislar) ishtirokida bo'lib o'tdi⁸². Unda kuchli Ipak yo'li brendini yaratish, mintaqaviy hamkorlikni yuqori darajaga yetkazish, Ipak yo'li bo'ylab rivojlanishni kuchaytirish masalalar bilan birga Ipak yo'li sayyohlik yo'nalishining asosiy muammolari muhokama qilindi.

Mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'rnatgan hamkorlik aloqalari turizm sohasi rivoji uchun ham ahamiyatli bo'lib, xususan, O'zbekistonning tarixiy va turistik markaz shaharlarida xalqaro turizmini rivojlantirishning yana bir muhim yo'nalishi sifatida yirik shaharlar bilan birodarlik aloqalarini o'rnatish orqali nafaqat madaniy, balki mavjud turizm salohiyatidan samarali foydalanishda barqaror sayyohlar oqimining o'sishiga ham xizmat qiladi. Bu yo'nalishda Samarqand shahri 2025-yilgacha dunyo shaharlarining 20 dan ortig'i bilan birodarlik aloqalarini o'rnatgan⁸³. Ziyorat turizmi sayyohlari uchun umumiy ovqatlanish maskanlari, restoranlar va joylashtirish vositalariga *“Halol”* standarti joriy qilish ishlari boshlandi. 2022-yil 6-iyun kuni Singapurda bo'lib o'tgan musulmon turizm bozorini tiklash va rivojlantirishga bag'ishlangan *“Halal In Travel Global Summit – 2022”* sammitida O'zbekiston *“World Muslim Travel Index”*da eng sara o'ntalikka kirdi. Yana bir e'tiborli jihati shuki, sammitning *“Yilning islom merosi obidasi”* hamda *“Yilning eng yaxshi rivojlanayotgan musulmon manzili”* kabi halol sayohat mukofotlari

⁷⁹ Buxoro viloyati turizm boshqarmasi joriy arxivi. Buxoro viloyatida turizm sohasi ko'rsatkichlari ma'lumotnomasi. 01.01.2026

⁸⁰ O'zR MA. M-141-fond, 1-ro'yxat, 58-ish, 40–42-varaqlar.

⁸¹ O'zbekiston va YNVTO hamkorligi rivojlanmoqda // Xorazm haqiqati. 2014 yil 4-oktabr. 79-son.

⁸² Fifth International Meeting on the Silk Road (Samarkand, Republic of Uzbekistan) | UN Tourism. <https://www.untourism.int/archive/global/event/fifth-international-meeting-silk-road-samarkand-republic-uzbekistan?/>

⁸³ Samarqand Yurmala (Latviya Respublikasi), Kenju (Koreya Respublikasi), Samara (Rossiya Federativ Respublikasi), Rio-de-Janeyro (Braziliya), Lvov (Ukraina), Lej (Belgiya), Banda-Achex (Indoneziya), Lion (Fransiya), Bremen (Germaniya), Kayruan (Tunis) va Lahor (Pokiston, 1995-yil), Krasnoyarsk (Rossiya Federativ Respublikasi, 2003-yil), Plovdiv (Bolgariya, 2008-yil), Mexiko (Meksika, 2010-yil), Florensiya (Italiya, 2013-yil), Gyeongju (Janubiy Koreya, avgust), Shensi provinsiyasi (Xitoy Xalq Respublikasi, 2013-yil), Sug'd viloyati (Tojikiston, 2018-yil), Isfahon (Eron Islom Respublikasi, 2021-yil iyul), Nara shahri (Yaponiya, 2022-yil), Konya (Turkiya, 2025-yil 10-fevral) bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. / https://samarkand.uz/about_region/biroadarlashgan-shaharlar/

Samarqand shahriga taqdim etildi⁸⁴. “Malaysia Airlines”, “Qatar Airways” va “Flynas” kabi aviakompaniyalar Samarqand va Buxoro orqali Markaziy Osiyoning shaharlarini bog‘lash maqsadida Samarqand va Buxoroning xalqaro aeroportida beshinchi havo erkinligi joriy etilishi orqali xalqaro turistik hab sifatida doimiy foydalanish talabini ilgari surmoqda. Afsuski, ko‘p yillardan buyon aviakompaniyalarning parvozlar bo‘yicha beshinchi havo erkinligi huquqini olish so‘rovi javobsiz qolmoqda.

